

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA IQTISOD FAKULTETI

TUYCHIEV SHERXON SHUXRAT O'G'LI

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIIY
HIMOYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI”**

5340000-“Moliya-iqtisod” ta'lim yo'nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**«HIMOYAGA RUXSAT
ETILDI»**

«Moliya» kafedrası mudiri

_____ i.f.n.,dots.

O.Komolov

«_____» _____ 2013 y.

Ilmiy rahbar: _____ A.Norqulov

TOSHKENT-2013

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Bizning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz respublikaning o'ziga xos turmush shart-sharoitlari va xususiyatlarini, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslangan. Ayni paytda, bizning yo'l - jahon amaliyotida to'plangan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar orttirgan ijobiy tajribalarni ham hisobga oladi.

O'zbekiston tanlab olgan yo'l-respublika va uning xalqi manfaatlariga mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiyotdir. Bozor munosabatlariga o'tish insonning ijodiy va mehnat salohiyatini namoyon qilishdagi, boqimandalikni bartaraf etishga, yo'qolib ketgan egalik tuyg'usini qayta tiklashga imkon beradi. Faqat bozorgina mahsulot ishlab chiqaruvchining hukmini bartaraf etib, respublikaning g'oyat katta boyliklaridan samarali foydalanishni ta'minlay oladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishishga chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir. Iqtisodiyot barqaror ishlagandagina bozor munosabatlariga muvoffaqiyatli o'tish mumkin.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish-bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Biz iqtisodiyotni barqarorlashtira borib, bozor munosabatlarini normal rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiramiz. Islohotlar barqarorlikning g'oyat muhim sharti bo'lmish - aholini ijtimoiy himoya qilish, xaqiqatdan ham asosiy, uzluksiz, ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida oldindan o'tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining etakchi printsiplaridan biridir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

sharoitida barcha islohotlarning-iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi-insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iboratdir.

Ushbu vazifaning ijobiy hal etilishi aynan ijtimoiy sohalar taraqqiyotiga bog'liqdir. Bugungi kunda aholining tarkibi respublikamizdagi barcha ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Bu esa ijtimoiy masalalarni, jumladan, ijtimoiy yordam, pensiya ta'minoti, maorif va sog'liqni saqlash jarayonlarini isloh etishning ustivor yo'nalishlar ekanligini belgilab bermoqda. Xususan, itimoiy-madaniy sohalarni ustivor rivojlantirish dasturi va hukumat qarorlarida belgilangan chora-tadbirlar doirasida o'tdi. Bu esa biz tomondan tanlangan bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini bildiradi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ob'ekti. Davlat moliyasining muhim bo'g'ini bo'lmish davlat byudjeti xarajatlarining tarkibida ijtimoiy-madaniy sohalarni rejalashtirish va moliyalashtirish yo'nalishlari iqtisodiyotning rivojlanishida muhim omil vositasini bajarayotgan bevosita davlat byudjeti, Respublikasi qonunlari, Davlat statistika qo'mitasi to'plamlari, mazkur ishning ob'ekti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining predmeti. Aholini ijtimoiy himoya qilish siyosatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirish yo'nalishlarini

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

belgilashning o'ziga xos xususiyatlari hamda mazkur sohani moliyalashtirish borasidagi dolzarb muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni belgilab olindi:

-iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitida ijtimoiy-madaniy sohalar faoliyatini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari o'rganish, ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish;

-aholining rivojlanish darajasi, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar, ularga erishish muddatlari o'rganish;

-iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitida ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari va ularni takomillashtirish yuzasidan aniq amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

-Davlat va Nodavlat fondlarni ijtimoiy soxalarga yo'naltirish tadbirlarini ishlab chiqish;

-iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitida ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

-ijtimoiy-madaniy sohalar tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalar o'rtasida qayta taqsimlash va bosh yo'nalishga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish maqsadida davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini markazlashtirishdan iborat;

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy ishda oldinga surilgan ilmiy-amaliy tusdagi qoida, g'oya, fikr-mulohaza, xulosa va takliflardan: yangi tahrirdagi moliya tizimini strategiyasini belgilash; globallashtirish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish

yo'nalishlari va mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan keyingi ilmiy–tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

“Moliya”, “Davlat byudjeti” kursi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda foydalanilish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining tuzilishi va hajmi. Tuzilmaviy rejasiga ko'ra, ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish qismidan, uch bobdan, hulosasi va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

II-BOB. GLOBALASHUV SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI AMALGA OSHIRISHNING ZARURLIGI, VAZIFALARI, VA TASHKILIY-XUQUQIY ASOSLARI

1. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini amalga oshirishning zarurligi va ahamiyati

O'zbekistonning o'z yangilanish taraqqiyot yo'liga asos bulgan eng muhim koidalaridan biri bozor iktisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazishdir. Kolgan barcha koidalar ijtimoiy vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kat'iy kafolatini vujudga keltirishga qaratiladi.

Axolini ijtimoiy ximoya kilish siyosati – bu davlatning fukarolar shaxsiy xayotiga aralashishi emas, balki inson xak-xukuklarini, jumladan, inson xukuklari umumiy deklaratsiyasi xamda iktisodiy, ijtimoiy va madaniy xukuklar tugrisidagi xalkaro xujjatlarda yozib kuyilgan, xar bir kishining turmush darajasi etarli darajada yukori bulishini, ozik-ovkat, uy-joy, ish bilan ta'minlashni yaxshilashga, salomatligini tiklashga, madaniy-mayshiy extiyojlarini kondirish va pensiya ta'minotini yulga kuyishga karatilgan tadbirlar majmuasidir.

Ijtimoiy ximoya ob'ektini aniklab olish – ijtimoiy ximoyaning muxim shartlaridan xisoblanadi. Ijtimoiy ximoya ob'ektiga kuyidagi aholi guruhlari kiradi:

1. Nogironlar.
2. Nafaqahurlar.
3. Yosh bolalar.
4. Boquvchisini yo'qotgan oilalar.
5. Yolgiz va xomilador onalar.
6. Qashshoqlik chegarasidan kam daromad oluvchi oilalar.

7. Vaqtincha mexnat kobiliyatini yuqotganlar.
8. Vaqtincha va umuman ishsizlar.
9. O'kituvchilar, talabalar

O'zbekistonda axolini ijtimoiy ximoyalashning yaxshilash, uchunning samarasini kutarish kuyidagi muxim vazifalarni xal etishga boglikdir.

Birinchidan, bu - ishlab chikarishni barkarorlashtirish va muttasil rivojlantirish. Pul kadsizlanishiga karshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalk iste'moli mollari ishlab chikarishni jadal rivojlantirish, milliy valyutani va ichki iste'mol bozorini mustaxkamlash natijasida isloxotlarning boshlangich boskichidayok turmush darajasini saklab kolish va uchunning keskin pasayib ketishiga yul kuymaslik imkoni yaratildi.

Umr kurish darajasi uzaydi, gudaklar o'limi, jinoyatchilik kamaydi. Bizda jinoyatchilik MDX mamlakatlari orasida eng past darajada.

Iktisodiyotning barkarorlashuvi, Investitsiya faoliyatining kuchayishi, kichik va urta biznesni kullab-kuvvatlash yuli yangi shichi urinlarini tashkil etish, ish bilan bandlik muammolarini xal kilish, ish xaki saklanib kolmagan yoki kisman saklanib kolgan xolda tuliksiz ish kunida ishlayotgan va majburan meeexnat ta'tilida yurgan shaxslar sonini keskin kiskartirish uchun kulay zamin yaratdi.

Garchi Uzbekiston nufus soxasidagi vaziyat murakkab bulgan, ishga joylanishi muammolari xamma vakt keskin turggan mamlakat bulsa-daromad, xozir respublikada iktisodiyot barkaror rivojlanib borayotganligi tufayli bu erdagi ishsizlik eng past darajada deyish mumkin. Ayni chogda biz bundan buyon xam iktisodiyotda tarkibiy jixatdan uzgarishlar kilish, eng avvalo, kisholk joylarda ixcham ishlab chikarish korxonalari tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ragbatlantirish xisobiga axolining ish bilan bandligini ta'minlash siyosatini faol amalga oshirmokchimiz.

Ikkinchidan. Bu – davlat mablag'lari bilan bir katorida mexnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari va jamgarmalarining mablaglarini keng jalbetish.

Axoliga ijtimoiy yordam kursatishda maxalliy xokimiyat va boshkaruv organlarining xukuklari ancha kengaytirilishi xamda ma'suliyati oshirilishi lozim. Ular mintakalarning imkoniyatlarini xisobga olgan xolda axolini ijtimoiy kullab-kuvvatlash soxasida kushimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga xaklidir. Maxalliy organlarning asosiy vazifasi – odamlarga uz farovonliklarini yuksalitirsh maksadida mexnat kilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishdan iborat.

Ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mexnatdagi faolligini va tadbirkorligini ustirish uchun shart-sharoitlar yaratishga karatilishi darkor.

Uchinchidan. Bu – odamlarning kuch va kobiliyatlari tula-tukis faollashuvini ta'minlashga kodir bulgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish. Bu mexanizmni birinchi navbatda, xar bir kishining iktisodiy erkinligi, uning uzi va oilasining baxt-saodati uchun iktisodiy javobgarligi bilan uygunlashadigan shart-sharoitlarni yaratsh xisobiga shaklantirish lozim. Uz kobiliyat va mexnatiga tayanib ish tutish farovonlikning birdan-bir va eng barkaror manbai bulib koladigan munosabatni vujudga keltirish. Buning uchun xususiy mulk institutining rivojlanishini tezlashtirish juda muxim.

Bozor sharoitlariga moslashishi xozirgi kunning uzidayok axoli jami daromadining ancha kismi tadbirkorlik faoliyati xamda mulkdan kelgan daromad xisobiga vujudga kelishini ta'minlamokda.

Turtinchidan. Bu – axolining daromadlarida va turmush darajasida asossiz katta farklarga yul kuymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barkarorlikni ta'minlaydigan katlamlarni shakllantirish.

Axolini ijtimoiy ximoyalash borasida kurilgan chora-tadbirlar axolining daromadlar darajasi buyicha keskin tabakalanishi mumkinligining oldini oldi. Bugungi kunda axolining eng yaxshi ta'minlangan guruxi bilan eng kam ta'minlangan kismi olayotgan daromadlar urtasidagi fark yukori xisoblanuvchi 8 barobardan 7,5 barobarga tushdi. Bu farkning 8 barobardan yukori bulishi jamiyat ijtimoiy jixatdan keskin tabakalanganligidan darak beradi.

Beshinchidan. Bu – kashshoklikka karshi kurash. Axoli eng muxtoj katlamining davlat tomonidan kullab-kuvvatlanishini kuchaytirish.

Xozirgi jamiyatning asosiy illatlaridan biri kashshoklikdir. Jaxondagi bironta xam mamlakat, xatto eng boy mamlakat xam xozircha undan kochib kutula olmagan. BMT Bosh Assableyasi 1996 yilni kashshoklikni tugatish Xalkaro yili debe'lon kilganligi bejiz emas.

Bozor iktisodiyotiga utish davrida kashshoklik muammosi yanada chukur xis etiladi. Bu xol, eng avvalo, kambagallar toifasiga ijtimoiy nochor guruxlaridan tashkari, axolining ilgari ular jumlasiga kirmagan guruxlari, shu jumladan daromatlari urtacha yoki urtadan yukori darajada bulganlar guruxiga mansub kuplab kishilar xam kirib kolishi bilan boglikdir.

Qashshoklikni tugatish muammolarini xal etishda axolining vujudga kelgan vaziyatlar tufayli kambagallik darajasiga tushib kolishi mumkin bulgan «nochor guruxlar»i: nogironlar, yolgiz onalar, etim bolalar, keksalarga aloxida e'tibor berish talab kilinadi. Birok bunda kursatilayotgan ijtimoiy yordamning anik maksadga yunaltirilganligi yakkol kurinib turishi lozim.

Yukoridagi fikrlarni umumlashtirgan xolda, zimmaga olgan vazifalarni amalga oshirishda axolining siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirish juda muxim axamiyat kasb etayotganligini aloxida ta'kidlashni istar edik.

Respublikada xozirgi ijtimoiy axvolni ana shu nuktai nazardan baxolab dadil aytishimiz mumkinki, xalkimiz chekiga tushgan va utish davrida mukarrar bulgan eng kiyin sinovlar ortda koldi. Tor fikr yurtish, mafkuraviy maxdudlik

bilan bogliqbulgan xamma xolatlar utmishga aylanmokda. Mamlakat ichidagina emas, balki uning tashkarisida xam yuz berayotgan barcha xodisalarga daxldorlik xissi kuchayib bormokda. Mustakillik yilarida nafakat uzimizning, balki boshka mamlakatlar mioslida tuplangan oz, ammo achchik tajriba kup masalalarda odamlarning kuzini ochdi, ularni yanada donorok va sabr-tokatlirok kilib kuydi.

Inson ma'naviyatining, yuksak axlok va madaniyatining, guzal milliy an'analari kayta tiklashning muazzam katamlari ochildi.

Bugungi kunda axolining moddiy farovonligiga salbiy ta'sir kursata oladigan omillar deyarli yuk. Aksincha, barkarorlashtiruvchi, axolining turmush darajasi usishi uchun shart-sharoit va ishonchli kafolatlar yaratib beruvchi omillar tobora ortib bormokda.

Eng muximi esa – inson va fukaroning fikrlashi va dunyokarashi uzgarmokda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi tuxtovsiz uisb bormokda. Bugun biz bundan sakkiz yil oldingi xol bilan solishtiradigan bulsak uzgarish ijobiy tarafga kupaymokda.

Tarix sabog'i shundaki, uchunning aynan keskin burilishlarida ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar goyat keskinlashadi, milliy va barkarorlikka taxdid soluvchi omilga aylanadi.

Bu xolni nimalar keltirib chikaradi, o'tish davrida ijtimoiy barkarolik masalalariga aloxida e'tibor berishning kanday muxim sabablari bor? «Mening nazarimda, bu sabablardan eng muhimlari kuyidagilar:» - deydi O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov.

Birinchi: Ijtimoiy ziddiyatlar o'z moxiyatiga ko'ra xamisha siyosiy, ijtimoiy va iktisodiy o'zgarishlarning xarakatlantiruvchi kuchi bulib xizmat kiladi. Uzgarishlarning kay tarzda yo izchil, tadrijiy yul bilan borishi, yo bulmasa, keskin shakllarga kirishi: ijtimoiy noroziliklar, stixiyali portlashlar, xatto fukarolar urushlari va inkiloblar tusini olishi tuplanib kolgan ijtimoiy

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

muammolarning kay darajada keskinligiga, xukmron tuzilmalarning bu muammolarni xal kila olishi yoki xal kila olmasligiga bog'lik.

Shu sababli tarakkiyotning xamma boskichlarida odamlarning ijtimoiy kayfiyatlarini, ijtimoiy muammolarni nazar-pisand kilmaslik barkarorlikka va milliy xavfsizlikka katta xavf tugdiradi.

Ikkinchi. Odamlarni da'vat etuvchi ijtimoiy sabablarning ruyobga chikishi juda muxim axamiyatga egadir. Zaminimizda yashayotgan odamlarning munosib va erkin, farovon xayotini ta'minlash, xar bir kishi xukuk va imkoniyatlaridan tulik foydalanish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish – jamiyatimizni islox kilish va yangilash paytida olidimizga kuyayotgan goyat muxim vazifalardandir. Shu bois eski totolitar, mafkuraviy, buyrukbozlik – taksimot tuzumiga xamda soxta tenglik va mexnatni kadrlash uchun soglom negiz bo'lmagan bir xolatga kaytish biz uchun makbul emas.

Agar utish davrida pirovard maksadga erishish – jamiyatni demokratlashtirish va bozor iktisodiyotini ruyobga chikarish uchun ayrim boskichlarda odamlarning modddiy axvoli yomonlashuviga olib keladigan nomatlub, ba'zan keskin karorlar kabul kilishga tugri kelishi xisobga olinsa, axolining ijtimoiy ximoyalanmagan katlamlarini kullab-kuvvatlashga doir choralar kurish kanchalik axamiyat kasb etishi ayon bulib koladi.

Yukorida kursatib utilganidek, isloxotlarning moxiyatiga turalarga putur etkazish, ijtimoiy adolatni buzish, xokimyatning turli pogonalaridagi korruptsiya axolini shunday xam tang axvolini yanada ogirlashtirib, jiddiy ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Bu xol utmishni kumsash kayfiyatlari uygonishi uchun kulay zamin yaratadi, shovinizm va soxta vatanparvarlikdan tortib to murosasiz sotsialistik kayfiyatdagi turli xarakatlargascha ozik beruvchi muxit bulib xizmat kiladi. Bunday xolatda axoli orasida ijtimoiy norozilik kayfiyatlarining garazli, tor

siyosiy manfaatlarini kuzlab muttasil kuzgatib turilishi xam fukarolar tengligiga, barkarorlik va xavfsizlikka taxdid soladi.

Uchinchi. Keng kulamdagi uzok muddatli islox kilish jarayonining dastlabki boskichini- «men eng kiyin, ijtimoiy portlash xavfi bulgan boskich, deb atagan bulardim» – deydi I.A.Karimov. buning sababi shundaki, utish davrining uzi kup xollarda bir kancha xal kilinmagan ijtimoiy muammolarni keltirib chikaradi va uchunlar zamiridagi larzaga soladigan kuchni uzida saklab turadi. Shu bilan birga bir siyosiy va iktisodiy tzimdan ikkinchisiga utish xam yangi muammolarni tugdirishi va muayyan ijtimoiy kamchiliklar bilan boglik bulishi mumkin.

Kup mamlakatlarning tajribasi bozor munosabatlariga utish sillik, ijtimoiy kiyinchiliklarsiz. Oson kechmasligini kursatadi. Bu ob'ektiv jarayondir.

Iktisodiyotning erkinlashtirilishi, ayniksa iste'mol narxlari va tariflarning «esankiratadigan» tarzda kuyib yuborilishi, ishlab chikarishning pasayib ketishi, tulovlarni amalga oshirmaslik bilan boglik tanglikning keskinlashuvi, pul muomalasining buzilishi kupchilik yangi mustakil davlatlarda iste'mol narxlarining keskin usishiga, jamgarmalarning kadrsizlanishiga, axolining anchagina kismi turmush darajasining pasayishiga, butunlay yoki kisman ishsizlar sonining usishiga olib keldi. Bu davrda axolini ijtimoiy ximoyalash va kullab-kuvvatlashga karatilgan choralarga etarli e'tibor bermaslik axolining ancha kismi kashshoklashuviga, ularning lyumpenlashuviga olib kelishi mumkin. Bir kancha mamlakatlarda shunday buldi xam. Ma'lumki, bunday xolat ijtimoiy bekarorlikni vujudga keltiruvchi muxit bulib xizmat kiladi.

Turtinchi. Utish davrining keskin ijtimoiy muammosi kup kishilar uchun karor topgan turmush tarzining buzilishidan, xayotiy muljallarning, fikrlash tarzi, ijtimoiy fe'l-atvor, bokimandalik kayfiyatining uzgarishidan iborat. Utish davrida odamlarning tafakur yuritish psixlogiyasi uzgaradi, bu esa, ayonki xamma vakt xam oson kechavermaydi.

Sobik ittifoq davrida uchdan ziyod avlod vakillari nafakat xususiy mulkni tan olmaydigan va mustakil xujalik faoliyat kunikmalarini bermaydigan mafkuraviy akidalar asosida, balki, ustiga-ustak, markazdan turib taksimlash goyalari, ijtimoiy adolat tushunchasi xakidagi soxta tasavvurlar asosida tarbiyalangan edilar.

Utish davrida eskicha va yangicha fikrlash urtasidagi, utmish va xozirgi zamonning kadriyatlar tizimi urtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashadi.

Xalkimizning ma'naviy boyliklarni, jaxon tsivilatsiyasi eng yaxshi yutuklarini uzida mujassamlashtirgan yangi avlodni shakllantirish bugunning eng muxim vazifasidir. Fakat ana shu asosdagina, oldimizga kuyilgan yuksak maksadlar barchamiz uchun xayotimizning mazmuniga aylanib kolganidagina millatning ongli vatanparvarlik ruxini yuksaltirib, rivojlangan ilgor mamlakatlar kabi tarakkiyot yulidan ildam kadam tashlash imkoni tugiladi.

Xar kanday mamlakatda turli kurinishdagi tengsizliklar kupaysa yoki uchunlarning usishga imkon paydo bulsa, uchunlar ijtimoiy barkarorlik uchun xavf tugdiradi. Ijtimoiy muammolarning keskinligi kimlarningdir kambagalligi yoki boyligida emas, balki ushbu ijtimoiy tabakalar urtasida xaddan tashkari katta fark paydo bulishidadir. Bu esa beixtiyor uchunlarning karama-karshiligiga olib keladi.

Ayonki, agar jamiyat manfaatlari va intilishlari mutlako karama-karshi bulgan odamlar guruxlaridan iborat bulsa, xamma vakt ijtimoiy ziddiyat xavfi, demakki, milliy xavfsizlikka taxdid xam mavjud buladi. Ijtimoiy ziddiyatlarning xaddan tashkari keskinlashuvi jamiyatda ijtimoiy barkarorlikning barxam topishiga, ichki mojarolarga va xatto fukarolar urushiga xam olib borishi mumkin.

Shuning uchun xam utish davrida demokratik davlatning eng muxim vazifasi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinligini kamaytirishdan, bu davrning mukarrar kiyinchiliklarini extiyot choralari xisobiga yumshatishdan va

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

odamlarning yangi turmush sharoitlariga moslashishni osonlashtirishdan iborat. Aslini olganda, Uzbekiston amalga oshirayotgan siyosatning bozor munosabatlariga utayotgan boshqa davlatlar siyosatidan eng muxim afzalliklaridan biri xam shundadir.

Ijtimoiy kelishuvni kanday ta'minlash mumkin, ijtimoiy xamjixatlikka, shu jumladan mintakalararo totuvlikka kanday erishish mumkin, degan murakkab savollarga javob topishga kadir bulgan davlat demokratik va iktisodiy rivojlanishga umid boglashi mumkin.

Ijtimoiy birdamlikni ta'minlash – ijtimoiy ziddiyat va tengsizliklarning uzlarini adolatsiz ravishda xamma narsadan bebaxra bulib kolgan yoki xak-xukuklari kamsitilgan deb xisoblovchi butun-butun axoli guruxi va tabakalari vujudga keladigan darajaga boib etmasligiga erishish demakdir.

Shu boisdan xam O'zbekistonning o'z yangilanish va tarakkiyot yuliga asos kilib olingan etakchi tamoyilardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Bu demokratik va iktisodiy isloxotlarni muvaffakiyatli amalga oshirishning, ular orkaga kaytmasligining juda muxim sharti va garovidir.

1.2. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini isloh etishning tashkiliy-huquqiy va nazariy jihatlari

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish - bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Biz iqtisodiyotni barqarorlashtira borib, bozor munosabatlarini normal rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiramiz. Islohotlar barqarorlikning g'oyat muhim sharti bo'lmish - aholini ijtimoiy himoya qilish, xaqiqatdan ham asosiy, uzluksiz, ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida oldindan o'tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining etakchi printsiplaridan biridir.

Iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad yalpi ijtimoiy kafolatlar va aholining nochor va muxtoj qatlamlarini kuchliroq qo'llab-quvvatlash tizimi zarur bo'lib qoldi va yangidan ijtimoiy siyosat qurilishiga asos qilib olindi. Bugungi kunda davlat ijtimoiy siyosatining mahalliy byudjetlardagi asosiy maqsadi – bu iqtisodiy o'sish, aholini yashash darajasini oshirish va manzilli ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishdir.

Mamlakatimizda ijtimoiy-madaniy sohalarni moliyalashtirishning byudjet shakli ustunligi ijtimoiy-madaniy tadbirlarni bir qolipga solishga, ya'ni unga jamoat faravonligi sifatida qarashga olib keladi. Ma'lumki, ijtimoiy-madaniy sohalarning muhim turi-sog'liqni saqlash xarajatlarining 60% byudjet hisobidan qoplanmoqda. Ushbu xolatda jamiyatning tarmoqni moliyalash bo'yicha faoliyati faqat davlat vazifasi, deb talqin etib kelinadi, bu esa salomatlikni saqlashda kengaytirilgan ishlab chiqarishning boshqa qatnashchilari mas'uliyatini bajarishda, shuningdek, sog'liqni saqlashni moliyalashtirish manbalari kengaytirilishida sun'iy to'siq bo'lib keldi. Ayni bir vaqtda bunday yondoshuv tarmoqning o'ziga xos xususiyatini aks ettirmaydi, ayniqsa, sog'liqni saqlash sohasi taqdim etayotgan xizmat borasida to'g'ri kelmaydi.

Hozirgi zamonaviy sharoitda sog'liqni saqlash juda keng turdagi tibbiy xizmatlarni taklif etmoqda, ular yakka tartibdagi iste'mol va jamoat forovonligi tovarlari zarralarini o'zida yig'ma holda aks ettiradi. Tarmoqning bunday xususiyati uni moliyalashtirish manbalarini belgilashda hisobga olinishi lozim. Yakka tartibdagi, xususiy yoki muassasa tomonidan alohida shakllarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-madaniy xizmat butunlay yoki biron korxonalar tomonidan moliya bilan ta'minlanmog'i lozim. Jamoat farovonligi uchun to'lovni davlat o'z zimmasiga olishi kerak. Lekin vazifaning murakkabligi shundaki, jamoat va yakka xizmatlar o'rtasidagi chegarani belgilab olish mushkul. Ushbu masalani hal etish davlatning moliyaviy imkoniyatiga bog'liq

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
bo'ladi, moliyaviy asosi baquvvat davlat jamoat farovonligi turlarini ko'paytirib boradi va ularga bo'lgan ehtiyojni to'la qondiradi.

Ijtimoiy-madaniy sohalarining ma'lum bir turdagi xizmatiga alohida shaxslardan ehtiyoj bo'lsa, uni ishlab chiqarish ham foydali hisoblanadi. Xususiylar farovonlikni iste'mol qilish ko'pincha tashqi ijobiy samaraga ega bo'lmaydi, chunki ular alohida olingan individlar ehtiyojinigina qondiradi. Shunday ijtimoiy-madaniy xizmat turlari borki, ularga jamiyat doimo ehtiyoj sezib turadi, biroq ushbu turlarni ishlab chiqarish nodavlat sektor uchun foydasiz hisoblanadi. Birinchidan, ularni iste'mol qiluvchilar orasida daromadi yuqori bo'lganlar ozchilikni tashkil etadi, aksariyat holda bunday xizmatlar asosan qimmatbaho bo'ladi. Ikkinchidan, xizmatlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmaydi va ushbu farovonlikdan foydalanishda ijobiy samarasi ko'pchilikka tegishli bo'ladi, ushbu xizmatga ehtiyojmandlarni belgilab olish, demakki moliyalash manbalarini chegaralab olishni qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, bozor iqtisodi mexanizmi bunday turdagi xizmatlarni ajratib tashlaydi va ularni davlat moliyalashtirishga majbur bo'ladi, chunki bunday xizmatga jamoatchilik ehtiyoji mavjud bo'ladi. Bozor iqtisodini shakllantirish bosqichini bosib o'tgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, ijtimoiy-madaniy sohalar etarlicha samarali faoliyat ko'rsatishi uchun davlat ijtimoiy-madaniy sohalar tizimi bilan xizmat ko'rsatishning xu'lishi mumkin. Fuqarolarning jamoat farovonligiga bo'lgan ehtiyojni qondirish bilan xarajatlarini davlat tomonidan moliyalashtirishning mavjud shakllaridan biri, hozirgi vaqtda chet ellarda keng tarqalib borayotgan - transfert xarajatlaridir.

Davlat xaridi tizimi barcha xizmat uchun haq davlat tomonidan to'lanishi va so'ng xizmat aholi o'rtasida taqsimlanishini bildiradi. Transfert tizimi esa moliyaviy zahiralarni individual iste'molini mo''tadillashtirish uchun taqsimlashga asoslanadi. Ushbu oqim transfertlarning aniq maqsadga

yo'naltirilgani bilan bog'liq, shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirishga davlat aralashuvi sustligi bilan belgilanadi. Yana ta'kidlash lozimki, jamoat farovonligi uchun to'lovga davlat turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolarning shaxsiy jamg'armalarini ham jalb etishi mumkin. Bu davlat boshqaruvining tegishli iqtisodiy va huquqiy tayanchlaridan foydalanish vositasida ro'y beradi.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik turmush, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlari bu eng avvalo inson uchun munosib va faoliyat sharoitlarini yaratishdir. Shunday qilib biz komil ishonch bilan ayta olamizki mustaqillik yillari mobaynida biz yangi jamiyat asoslarini yaratishga o'zgarishlar muqararligining negizini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik.

Ijtimoiy sohani asosiy maqsadi bo'lib, aholining turmush darajasini oshirish hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat deganda muayyan davlat hokimiyatining ushbu soha bo'yicha o'z oldiga qo'ygan vazifalarini va maqsadlarini amalga oshirish bilan bogliq siyosat turi tushuniladi. Bu siyosat bevosita aholining turmush darajasini oshirish bilan bog'liq siyosat bo'lib unga:

- daromad siyosati;
- ijtimoiy ta'minot va mehnat bozorini shakllantirish;
- aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini yaxshilash kabi ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat turlari kiradi.

Ijtimoiy siyosatning ob'ekti bo'lib ijtimoiy soha hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki kundayoq ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi bozor iqtisodiyotini qurishni maqsad qilib oldi.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi davr taqazosi edi, desak xato bo'lmaydi. Chunki:

-Sobiq ittifoqning qator respublikalaridan farqli o'laroq, O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni ijtimoiy sharoiti ogir, turmush darajasi ko'rsatkichlari past bo'lgan bir vaqtda boshlashiga to'g'ri keldi:

-Respublikada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul daromadlari, o'rtacha ish xaqi eng muhim oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish va nooziq ovqat tovarlari hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi jihatdan oxirgi o'rinlarda edi;

-1990 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, aholiga tovarlarni realizatsiya qilish va xizmatlar ko'rsatish hajmi bo'yicha respublika ko'rsatkichlari Sobiq ittifoq ko'rsatkichlarining 55-60 foizidan oshmas edi;

-aholining katta qismi, ayniqsa qishloq axolisi jamiyatda rasman e'lon qilingan qashshoqlikda yashardi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1989 yilda jon boshiga hisoblanganda respublikalardagi oilalarning (respublikamizdagi) 44 foizining pul daromadi rasmiy belgilangan eng kam ish xaqidan ham oz bo'lgan;

Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat olib borilishi lozim, lekin qanday qilib? Bu erda eng muhim va zamonaviy muammolardan biri masalaning javobini tashkil qiladi. Ya'ni, eng avvalo kam ta'minlangan tabaqaga yordam berish haqida davlat samarali siyosatni ishlab chiqishi lozim va bunga bog'liq holda kam ta'minlanganlik va kambag'allik tushunchalarini ta'riflab berish shart deb o'ylaymiz.

Har bir davlatning kam ta'minlanganligini belgilashning, ya'ni hisoblab aniqlashning o'ziga xos uslubi mavjuddir. Masalan: AQSh, Angliya, Germaniya, Portugaliya kabi davlatlarda yashash minimumi 40 foizdan 60 foizgacha bo'lgan. Polsha va Vengriyada esa minimal pensiya miqdori, Bolgariyada esa minimal ish xaqi miqdori yoki summasi kam ta'minlanganlikni aniqlashda qo'llaniladigan vositalardir.

Respublikamizda ham aholi muxtojlik darajasiga qarab farqli guruhlarga ajratilgan: juda muxtojlar; muxtojlar; kam mulklilar va kam ta'minlanganlar.

Aholiga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy soha-bu milliy iqtisodiyotning har xil tarmoqlarining yig'indisidir. Buning asosiy funktsiyasi, aholi uchun kerak bo'lgan xizmatlarni yaratishdir. Ijtimoiy soha tarmoqlariga quydagilar kiradi: chakana savdo, maorif, tibbiyot, uy-joy komunal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'i, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat va san'at, atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy taminot va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatilgan sohalar aholining qandaydir ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlardir. Xizmatlarning hammasini ikkita yirik guruhga bo'lish mumkin:

- 1) Moddiy xizmatlar;
- 2) Ijtimoiy va manaviy xizmatlar.

Moddiy xizmatlar ishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilgan mahsulotlarni iste'molchilarga etkazib berish bilan, ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar. Masalan, savdo xizmatlari, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning ayrim turlari.

Ijtimoiy va ma'naviy xizmatlarga sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat muassasalarining xizmatlari, jismoniy tarbiya va sport, adabiyot, teatr, kino, muzeylar va boshqa tarmoqlarning xizmatlari va boshqalar kiradi.

Etkazib berish usuli bo'yicha xizmatlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) Pulli xizmatlar;
- 2) Bepul xizmatlar.

Pulli xizmatlarga uy-joy komunal xo'jalik xizmatlari, aholiga maishiy xizmatlar ko'rsatish tarmoqlari, savdo xizmatlar va hokazolar kiradi. O'zbekiston tabiiy va xomashe resurslariga boy. Bularning hammasi-er, suv, o'rmon va er osti boyliklari-respublikaning ajralmas mulki bo'lishi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlar O'zbekistonda oxirgi davrda ancha yuqori sur'atlar bilan rivojlangandir. Shu tarmoqlarning asosiy roli va vazifalari quyidagicha:

1. Ijtimoiy tarmoqlarni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish, shu tarmoq jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirish.
2. O'zbekistonni milliy xususiyatini hisobga olganda ijtimoiy sohaga tegishli bo'lgan muassasalarni qishloq joylarida yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish va buning natijasida qishloq va shahar aholisining turmush darajasidagi bo'lgan farqni kamaytirish.
3. Aholiga ko'rsatilgan bepul imtiyozlar asosida ko'rsatilgan xizmatlarni umumiy xizmatlardagi ulushini saqlab qolish.
4. Ijtimoiy tarmoqlarda milliy iqtisodiyotda band bo'lgan mehnat resurslaridan to'liq foydalanishga imkon berish;
5. Ijtimoiy tarmoqlarni milliy iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan yuqori malakali sog'lom kadrlarni etkazib berish;
6. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi aholining bo'sh vaqtini ko'paytirishga va shu vaqtdan ratsional foydalanishga sharoit tug'dirish.

Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlari faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ladi, jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi, chunki davlat amalga oshirayotgan, aholining hamma qatlamlari manfaatlariga daxldor bo'lgan iqtisodiy faoliyat natijalari ijtimoiy soha orqali ro'yobga chiqadi. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida byudjetning ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlarni ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishini kuchaytirish va keng ko'lamli ijtimoiy dasturlarni mablag' bilan ta'minlash uning manbalari bilan oqilona uyg'unlashtirib borishni taqozo etadi.

Ijtimoiy sohalar yangi qiymatni yaratish manbai hisoblansada, u buyumlar tarzida emas, balki xizmat turi sifatida mavjud bo'ladi. Ijtimoiy-sohalar tovarning turli ko'rinishlarini aks ettiradi, ularning barcha

xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Biroq, u moddiy ishlab chiqarishdan farqli o'laroq, ya'ni mahsulotning o'ziga xos buyum shaklidagi kabi bo'lmay, balki ijtimoiy-madaniy sohalarda mehnat mahsuli – foydali samara shaklida mavjud bo'ladi, uni yaratish va iste'mol qilish jarayonini solishtirib ko'rganda asl faoliyatdan ajralmas holda bo'ladi. Bundan tashqari, shuni hisobga olish lozimki, ijtimoiy-madaniy sohalar alohida turdagi tovar, bu ham ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashni tashkil etishga o'zining ma'lum bir xususiyati bilan ta'sir etib turadi.

Ijtimoiy-madaniy tadbirlarning barchasini ikki guruhga ajratish mumkin: individual iste'mol xizmati va jamoat xizmati. Individual iste'mol xizmatiga har bir xaridor tomonidan sotib olingan ijtimoiy-madaniy tadbir kiradi va bular o'z vazifasiga ko'ra shaxsning individual ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgandir. Jamoat tovariga esa mustasno qilib chegara belgilanmagan, undan barcha fuqarolar foydalana olishlari mumkin. Ushbu guruhdagi tovarlar bepul va tekin tarzida sotiladi. Jamoat tovarining katta ijtimoiy ahamiyatini hisobga olib davlat uni ishlab chiqarish va moliyalashtirishni amalga oshiradi. Yakka tartibda iste'mol tovari va jamoat manfaati uchun mo'ljallangan tovarlar orasidagi keskin farq tufayli ushbu tovarlarni ishlab chiqarish ma'lum darajada uni boshqarish va moliya bilan ta'minlashda qiyinchilik tug'iladi.

Mustaqillikka erishilgan yillardan boshlab mamlakatimizda aholini himoya qilish mexanizmi takomillashtirildi. 1990 yildan iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish bilan fuqarolarni pensiya ta'minoti to'g'risida qonun qabul qilindi. Bu bosqichda yangi tushunchalar paydo bo'ldi. Pensiya fondi, ijtimoiy pensiyalar, daromadlarni indeksatsiyalash ishlari olib borildi. Bunda ijtimoiy yordamning turlari quyidagicha: pensiyalar, bolalarga beriladigan nafaqalar, invalidlarga beriladigan imtiyozlar, bepul protezlash, davlat tomonidan yakka yashaydiganlar, qariyalar va invalidlarni ta'minlashdan iborat edi. Bugungi kunda mahalliy byudjetlarda aholini ijtimoiy himoya qilishda

ijtimoiy yordamning asosini pensiyalar va aholiga nafaqalar tashkil etadi. Pensiyalarning bir necha turlari mavjud: yoshiga doir bo'yicha, invalidlik bo'yicha, boqadigan odamini yo'qotish bo'yicha, ijtimoiy pensiyalar, imtiyozlar asosan invalidlarga va yagona turgan qariyalarga beriladi.

susiy sohasi qo'shib olib borilishi kerak.

Yuqorida aytilganlardan xulosa shuki, bunda ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarini qoplashda davlatning ishtirok etishi turli usullar bilan amalga oshirilishi davlat xaridi va davlat transferti mexanizmi vositasida bo'Mamlakatimizda davlat ijtimoiy siyosati vositasida aholini himoyalash asosan uch yo'nalishda amalga oshirilmoqda.

Birinchi bosqichda, narxlarning erkinlashtirilishi va ularning qadrsizlanishi darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasi muntazam oshib borildi. Bu soha 1993 yil yanvarda joriy etilgan yangi yagona tarif stavkasi barcha xodimlarning mehnat haqi miqdorini tarif koeffitsientlari orqali eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi. Ya'ni eng kam ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari ham o'z-o'zidan ko'tarila boradi.

Ikkinchi bosqichda, respublikani ichki iste'mol bozorini himoya qilish va aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining muayyan darajasini saqlab turish.

Uchinchi bosqichda, aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari ko'rildi. 1994 yilda aholini ijtimoiy himoya qilishning tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining muxtoj tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o'tildi, ya'ni «mahalla» jamiyati orqali bolalar va kam daromadli oilalarga moddiy yordam ko'rsatiladigan bo'ldi. Bunday aholini ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi islohotlar birinchi bosqichning ijtimoiy himoyalash sohasidagi muhim yakuni bo'ldi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini jalb etish imkoniyati davlat zimmasidan ma'suliyatni soqit qilmaydi. Boz ustiga, davlatning ijtimoiy-madaniy xizmatlarni moliyalashtirishda ishtirok etishchdan chetlashi davlat faolligining oshib borishi haqidagi A. Vagner qonuni shartlariga zid keladi. Ushbu qonunga muvofiq, sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlari ishlab chiqarish va milliy daromad hajmiga nisbatan tezroq o'sib borishi shart. Jumladan, ijtimoiy sohadagi xarajatlarni qoplashda davlatning ishtirok etishi ushbu tarmoqlarda bozor mexanizmi faoliyat ko'rsatishdagi bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyati bilan bog'lanadi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda bosh vazifa ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha majburiyatlarini to'liq maxalliy byudjetlar zimmasiga yuklash emas, balki ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlashda davlat byujeti va boshqa manbalar uyg'unligi uchun aniq imkoniyatlarni qidirib topishdan iboratdir.

I bob bo'yicha umumiy xulosalar

Mamlakatimizda davlat ijtimoiy siyosati vositasida aholini himoyalash asosan uch yo'nalishda amalga oshirilmoqda.

Birinchi bosqichda, narxlarning erkinlashtirilishi va ularning qadrsizlanishi darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasi muntazam oshib borildi. Bu soha 1993 yil yanvarda joriy etilgan yangi yagona tarif stavkasi barcha xodimlarning mehnat haqi miqdorini tarif koeffitsientlari orqali eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi. Ya'ni eng kam ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari ham o'z-o'zidan ko'tarila boradi.

Ikkinchi bosqichda, respublikani ichki iste'mol bozorini himoya qilish va aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining muayyan darajasini saqlab turish.

Uchinchi bosqichda, aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari ko'rildi. 1994 yilda aholini ijtimoiy himoya qilishning tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining muxtoj tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o'tildi, ya'ni «mahalla» jamiyati orqali bolalar va kam daromadli oilalarga moddiy yordam ko'rsatiladigan bo'ldi. Bunday aholini ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi islohotlar birinchi bosqichning ijtimoiy himoyalash sohasidagi muhim yakuni bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad yalpi ijtimoiy kafolatlar va aholining nochor va muxtoj qatlamlarini kuchliroq qo'llab-quvvatlash tizimi zarur bo'lib qoldi va yangidan ijtimoiy siyosat qurilishiga asos qilib olindi. Bugungi kunda davlat ijtimoiy siyosatining mahalliy byudjetlardagi asosiy maqsadi – bu iqtisodiy o'sish, aholini yashash darajasini oshirish va manzilli ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishdir

Ijtimoiy sohani asosiy maqsadi bo'lib, aholining turmush darajasini oshirish hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat deganda muayyan davlat hokimiyatining ushbu soha bo'yicha o'z oldiga qo'ygan vazifalarini va maqsadlarini amalga oshirish bilan bogliq siyosat turi tushuniladi. Bu siyosat bevosita aholining turmush darajasini oshirish bilan bog'liq siyosat bo'lib unga:

- daromad siyosati;
- ijtimoiy ta'minot va mehnat bozorini shakllantirish;
- aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini yaxshilash kabi ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat turlari kiradi.

Ijtimoiy siyosatning ob'ekti bo'lib ijtimoiy soha hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosatda quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta'minot;
- davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning zahirida bevosita xalqimiz farovonligini oshirish, joylarda, xususan, respublikamizning chekka xududlarida aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda.

II-BOB. AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA BYUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING HOZIRGI AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Globallashtirish sharoitida ijtimoiy himoyalash tizimini rivojlantirish tahlili

Prezidentimiz Islom Karimov rahnomoligidagi jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishda aholining ko'makka muhtoj qatlamlari – nogironlar, serfarzand oilalar, yoshi ulug' va yolg'iz keksalarni ijtimoiy himoyalashga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Zero, Prezidentimiz rahbarligi ostida halqimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'limizning negizida mashhur besh tamoyildan biri – kuchli ijtimoiy siyosat o'zining yorqin ifodasini topgan. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilgan "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturi doirasida bunday ishlar ko'lami tobora kengaydi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yanada bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, jamiyatga ezgulik, mehr-muruvvat va hamjihatlik, tinchlik va osoyishtalik muhitini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilyapti.

Ayni paytda ehtiyojmand oilalar, nogironlar, yoshi ulug'kishilarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmlarining asosiy tamoyillari yanada takomillashtirildi.

Bunda ijtimoiy adolat, xolislik va oshkoralik tamoyillariga qat'iy amal qilish, moddiy yordamni haqiqiy nochor oilalarga berish, ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Nogironlarga moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatish, ularni tibbi-ijtimoiy hamda psixologik rehabilitatsiya qilish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordamlashishi, zarur dori-darmonlar bilan ta'minlash kabi ishlarda yana bir

karrira o'z ifodasini topmoqda. Tibbiy ko'makka muhtoj kishilar tibbiy-profilaktik ko'riklardan o'tkazilishi, protez-ortopedik vositalar, dori-darmonlar bilan ta'minlanishi barobarida nogiron bolalar maktab ta'limi bilan qamrab olinib, uy sharoitida, maxsus maktab-internatlarda va umumta'lim maktablarida bilim olayotganlari e'tiborlidir.

1-jadval

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari to'g'risida ma'lumot

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil	
	ml rd.so'm	f oizda	ml rd.so'm	f oizda
Davlat byudjeti xarajatlari, milliard so'm	21 571	1 00	26 312	1 00
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	12 513	5 8	15 573	5 9,2

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining salmog'i yuqori bo'lmoqda. Xususan, ushbu xarajatlar 2012 yilda 12513 milliard so'mga rejalashtirilib, jami byudjet xarajatlarida 58 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan bo'lsa, 2013 yil uchun kelib ushbu xarajatlar 15573 milliard so'm hajmida rejalashtirilgan va uning jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 59,2 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan. Demak, ushbu sohaga qilinayotgan xarajatlar, birinchidan, nominal mazmunda va shuningdek, umumiy xarajatlar salmog'ida ham ortib bormoqda. Ushbu xarajatlarning tarkibi quyidagi diagrammada keltirilgan.

2013 yilda yurtimizda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining tarkibida 8984,6 milliard so'm hajmidagi mablag'lar ta'lim-tarbiya sohasiga sarflanishi rejalashtirilgan bo'lib, xarajatlarning asosiy qismini tashkil etgan. Qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurishni hamkorlikda moliyalashtirish uchun 374,7 milliard so'm miqdorida mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan (2-jadval).

2-jadval

2013 yilda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarning tarkibi

Oilalarga ijtimoiy nafaqalar	1839,9
Ijtimoiy ta'minot	197,3
Ilm-fan	173,1
Madaniyat va sport	279,1
Sog'liqni saqlash	3768,6
Qishloq joylarda uy-joylar qurishni hamkorlikda moliyalashtirish uchun kredit liniyalari	374,7
Ta'lim	8984,6

Amalga oshirilayotgan islohotlarda aholining turmush farovonligini va daromadlarini izchil oshirib borish ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu sohadagi islohotlar 2013 yilda ham davom ettirilib, davlat byudjetidan jami 1839,9 milliard so'm mablag' ayni shu maqsadlar uchun ajratilishi rejalashtirilgan.

2012 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar miqdorini bosqichma-bosqich ko'paytirish davom ettirilib, ish haqini inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lgan miqdorda oshirish uchun Davlat byudjetidan 1,3 trillion so'm mablag' ajratildi. 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab yagona tarif setkasini qayta ko'rib chiqish va mehnatga haq to'lashning bazaviy darajasini birinchi razryad miqdorida belgilash amalga oshirildi.

Iqtisodiyotga sarflangan xarajatlar 2013 yilda 10,6 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan. 2012 yilga nisbatan jami xarajatlarga nisbatan foizda kamayish kuzatilgan bo'lsa-da, ushbu sohaga qilingan nominal xarajatlar hajmi ortib borgan.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari ta'minoti uchun saqlash xarajatlar jami xarajatlar tarkibida 2012 yilda 3,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda bu xarajatlar 3,1 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilgan. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'minot xarajatlari 2013 yilda jami byudjet xarajatlarning 1,1 foizini tashkil etayotgani kuzatilmoqda. Bu o'z navbatida davlat boshqaruvi tizimida mahalla institutining rolini oshirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining tarkibiy tahliliga asoslangan holda ta'kidlash joizki, aholi turmush farovonligini oshirishdagi yanada ijobiy o'zgarishlarga erishish maqsadida byudjet sohasi xodimlari ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar miqdorini izchil oshirib borish kabi ijtimoiy sohadagi tadbirlarni moliyalashtirish bilan birga jahonda global miqyosda avj olib borayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatimizni barqaror iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omili sifatida ichki talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlikning muhim begilaridan biri davlat byudjetining profitsit bilan bajarilayotgani hisoblanadi. Xususan, keyingi yillarda davlat byudjeti taqchillik bilan rejalashtirilayotgan bo'lsa-da, soliqlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining ortig'i bilan bajarilishi hamda davlat byudjeti xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanishining ta'minlanishi natijasida byudjet profitsit bilan ijro etilmoqda.

O'tgan yillar mobaynida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstruktsiya qilindi va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunolari bilan ta'minlandi. O'quv jarayonini sifat

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
va metodik jihatdan butunlay yangilash bo'yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2012 yil mamlakatimiz ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bilan asos solingan uzluksiz ta'lim tizimini, kadrlar tayyorlashning milliy modelini to'la-to'kis amalga oshirish yili bo'ldi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari—shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylik to'la ta'minlandi.

Faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalarining barchasi ikki pog'onali umumiymajburiy ta'lim tizimi, ya'ni 9-sinfgacha umumta'lim maktablari va 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan o'z vazifalarini to'laqonli bajarishga kirishdi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarini ta'limning navbatdagi bosqichi—o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalariga to'liq jalb etishga erishildi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini o'z kasbini puxta egallagan, mehnat bozori talablariga har tomonlama javob beradigan darajada tayyorlash bilan bir vaqtda ularning mehnat bozoridan o'z o'rinlarini topishiga ko'maklashishga, yurtimizda bugun davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. "Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu kollejlarning ish beruvchi korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarining turli shakllaridan foydalanish, bu maslaga tuman va shahar jamoatchiligini jalb etish mazkur vazifani ado etishning eng muhim, hal qiluvchi yo'nalishi bo'ldi", deb Prezidentimiz bu borada oldimizda turgan eng muhim vazifalarni belgilab berdi.

Darhaqiqat, 2012 yilda davlatimiz rahbari tomonidan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi bosqichi – ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga

joylashtirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilib, ularning jamiyat hayotida o'z o'rinlarini topib olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bo'g'inida 1,7 milliondan ziyod o'quvchi ta'lim olmoqda. 1537 ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasida 214 ta yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash qat'iy nazoratga olingan. 2012 yili kollejlarni tugatgan 450 ming nafardan ortiq bitiruvchi ish bilan ta'minlandi, ularning 43 foizi o'zlari ishlabchiqarish amaliyotini o'tagan korxonalarga ishga joylashdi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi tomonidan olib borilgan faoliyat tahlili shuni ko'rsatadiki, 2011-2012 o'quv yilida mamlakatimiz kasb-hunar kollejlarini muvaffaqiyatli yakunlagan 501477 nafar bitiruvchining qariyb 80 foizi iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning turli sohalarida o'z mehnat faoliyatini boshlagan.

Mehnat bozori talablarining 2012 yildagi holatidan kelib chiqqan holda, kasb-hunar bitiruvchilarining:

- muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari yo'nalishida (137870 nafar);
- ijtimoiy soha, biznes va huquq yo'nalishida (78234 nafar);
- ta'lim yo'nalishida (59132 nafar);
- sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot yo'nalishida (34889 nafar);
- qishloq va suv xo'jaligi yo'nalishida (23170 nafar);
- xizmat ko'rsatish yo'nalishida (12398 nafar);
- gumanitar fanlar va san'at yo'nalishida (2890 nafar) o'z mutaxassisligi bo'yicha ish o'rinlariga ega bo'lganligini ta'kidlash joiz. Xususan, 2012 yilda “O'zmetkombat” OAJ, “Olmaliq” KMK, “O'zvinosanoat-xolding” kompaniyasi kabi yirik korxonalarda mazkur bitiruvchilarga talab yuqori bo'lganini kuzatish mumkin.

Ammo, tahlillar kasb-hunar kollejlariida ayrim yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda nomutanosibliklarga yo'l qo'yilayotgani, hududiy mehnat bozori hamda sohalarning kichik mutaxassislarga bo'lgan talabi etarlicha o'rganilmayotganini ko'rsatmoqda. Bunday holat kasb-hunar kollejlariida mutaxassislar tayyorlashni doimiy tarzda mehnat bozori talablariga va uning kelajakdagi prognozlariga bog'liq holda tashkil etishni muhim vazifa qilib qo'ymoqda.

Shu o'rinda, har bir kollej direktori hudud va sohaning istiqboli hamda mamlakatning strategik yo'nalishlarini chuqur bilgan holda, mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda mazkur vazifaga jiddiy mas'uliyat bilan yondashishi talab etiladi.

O'zbekiston Prezidentining mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada ko'proq erkinliklar berishga qaratilgan 2011-2012 yillarda qabul qilingan bir qator farmon va qarorlari ko'plab kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ham puxta egallagan bilim va kasbiy malakasiga ishongan holda o'z kichik biznesini, mustaqil ish faoliyatini tashkil etishga undamoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi "Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzilganda, band xodimlarning o'rtacha yillik soni qonun hujjatlarida belgilangan cheklangan normativdan ko'pi bilan 20 foiz oshirilgan hollarda, mikrofirma va kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar, kafolat va huquqlar ularda saqlanib qolishi ko'zda tutilgan.

So'nggi yillarda kollej bitiruvchilari tomonidan o'z biznesini tashkil etishga bo'lgan intilish kuchayib borayotganini yaqqol kuzatish mumkin. 2011 yilda bitiruvchilarning 10049 nafari o'z biznesini tashkil etgan bo'lsa, 2012

yilning 9 oylik yakunlariga ko'ra, bu ko'rsatkich 9096 nafarni tashkil etgan. Bitiruvchilarning o'z biznesini tashkil etish istagi kuchayib borishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda.

1. Kollejlarda ta'lim-tarbiya ishi zamon talablari darajasida tashkil etilayotgani, o'quvustaxonalarining sohaga oid eng ilg'or vositalar bilan jihozlangani natijasida bitiruvchilarda o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha etarli bilim va kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyati kengayib borayotgani.

2. Kichik biznes va tadbirkorlikning davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani.

3. Bitiruvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish maqsadida hududlarda "Mikrokreditbank", Savdo-sanoat palatasi, "Kamolot" YoIH bilan hamkorlikda "Yosh tadbirkor – yurtga madadkor", "Mening biznes g'oyam" kabi mavzularda turli seminarlar va ko'rik-tanlovlar tashkil etilishi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan bitiruvchilarga imtiyozli kreditlar taqdim etilishi. Ta'kidlash joizki, birgina 2011 yilda bitiruvchilarga 21 milliard so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2012 yilning o'tgan davri mobaynida bu ko'rsatkich 28 milliard so'mdan oshib ketdi. Shu o'rinda raqamlarga e'tibor qaratib, 2012 yida tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini olib, o'z biznesini tashkil etgan bitiruvchilar faoliyatini iqtisodiyot sohalari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, ularning 679 nafari chorvachilik, 140 nafari parrandachilik, 379 nafari tikuvchilik, 279 nafari savdo va xizmat ko'rsatish, 95 nafari issiqxona, 400 nafarga yaqini qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish, baliqchilik, asalarichilik, mobil aloqa xizmati, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, milliy hunarmandchilik, mebelsozlik kabi sohalarda ish olib bormoqda. Ajratilgan imtiyozli kreditlarning asosiy qismi Toshkent shahri (1,5 milliard so'm), Toshkent (2,4 milliard so'm), Samarqand (1,3 milliard so'm), Navoiy (1,1 milliard so'm), Jizzax (1,1 milliard

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
so'm), Xorazm (1,3 milliard so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelganini alohida
ta'kidlash lozim.

3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining tarkibida
ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlarining
tuzilmasi**

№	Davlat budjeti xarajatlari	2010 - yil	2011- yil	2012-yil
		mln. so'mda	mln. so'mda	mln. so'mda
1.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlari: jami	8 113 004,0	10 112 313,4	12 513 200,0
-	Shu jumladan:			
1.1.	Maorif	4 635 065,9	5 890 847,3	7 223 700,0
1.2.	Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi	0,0	0,0	70 000,0
1.3.	Sog'liqni saqlash	1 704 132,2	2 217 691,9	2 820 300,0
1.4.	Madaniyat va sport	159 913,3	194 851,1	226 900,0
1.5.	Fan	83 570,8	111 052,5	140 400,0
1.6.	Ijtimoiy ta'minot	59 281,1	74 321,3	93 800,0
1.7.	Oilalarga ijtimoiy nafaqalar (bolali oilalarni qo'shg'anda)	1 431 895,2	1 582 551,8	1 899 000,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlari jami xarajatlarining 58-60 foizini tashkil etmoqda. Iqtisodiyot xarajatlari esa 2010-yilda 1 573 250,1% mln.so'm 2012 yilda esa 2 372 000,0 mln. so'mni tashkil etgan. Markazlashtirilgan investitsiyalarni budjetdan moliyalashtirish uchun 2010 yilda 825 mlrd so'm 2011-yilda 950 mlrd so'm 2012- yilda esa 1059 mlrd so'm sarflanishi kuzatishimiz mumkin. Biz uz navbatida xozirgi kunda amalga oshiriladigan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash innavatsiyon texnologiyalarni keng joriy qilish bilan bog'lik yirek va stratigek ahamiyatga ega bo'lgan loyixalarni moliyalashtirishda budjet investitsiyalarini ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

2012 yilgi budjet siyosatida ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekanstruksiya qilish, kapital tamirlash va jixozlash fondiga 264 mlrd so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu ham Uz navbatida ta'lim va tibbiyot muassasalarini modernizatsiya qilish orqali ta'lim va sog'likni saqlash bo'yicha xizmatlar sifatini yanada yuksaltirish provardida aholining intellektual

saloxiyati va turmush farovonligini yuksaltirishda davlat budjeti aloxida ahamiyatga ega bo'layotganini tasdiqlaydi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari sud organlari faoliyati uchun xarajatlar jami, xarajatlar tarkibida 2010-yilda 2,6 foizni tashkil etgan bo'lsa 2012-yilga kelib bu xarajatlar 2,9 foizini tashkil etishi ko'zda tutilgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati uchun xarajatlar keyingi yillarda jami budjet xarajatlarining 0,9 foizini tashkil etishi kutilmoqda.

Yuqoridagi jadvalga qaraydigan bo'lsak 2011- 2012 yillarda maxalliy budjet xarajatlarida ijtimoiy madaniy tadbir xarajatlari va aholining turmush farovonligini oshirish xarajatlari o'sish suratiga ega. shuni aloxida takidlash kerakki, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Shaxrisabz bo'yicha budjet xarajatlari jami rejada ko'rsatilgan xarajatlar 2011 yili 99.7 foizga bajarilgan, 2012- yilda 99,9 foizga bajarilgan 2011 yilda xarajatlar tarkibida iqtisodiyot xarajatlari, turmush faravonligini oshirish xarajatlari bo'yicha reja ko'rsatkichlari bajarilga. 2012 yilda iqtisodiyot xarajatlari davlat boshqaruv organlarining saqlash xarajatlari, boshqa xarajatlar va turmush faravonligini oshirish xarajatlari rejaga nisbatan bajarilgan. Xarajatlarning rejaga nisbatan bajarmaslik holatlari birinchida xarajatlarni rejalashtirish bo'yicha ayrim kontenagentliklarni qisqarishi va shu bilan birga 4 guruh xarajatlari bo'yicha majburiyatlarni to'liq amalga oshirilmasligi ya'ni kassa xarajatlarini amalga oshirmasligi natijasida vujudga keladi.

2.2. Aholini ijtimoiy ximoya qilish xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirish tahlili.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida maxalliy budjetlarning ahamiyati ularning xarajatlar qismida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Ma'lumki, bugungi kunda hududiy iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani saqlash va rivojlantirish, aholiga turli ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish, aholini ijtimoiy jixatdan qo'llab-quvvatlash, maxalliy boshqaruv organlarini saqlash kabi

vakolatlar maxalliy xukumat organlari zimmasiga yuklatilgan. Bu vakolatlarni bajarish esa maxalliy budjetlardan muayyan sarf-xarajatlar qilishni takozo etadi.

“O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi to‘g‘risida” gi qonuning 23- moddasiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, Toshkent Shahar budjeti, viloyatlar va uning tarkibidagi tumanlar va Shaharlar budjeti quyidagilarga mo‘ljallangan xarajatlarni amalga oshirishlari mumkin fan, ta‘lim, madaniyat, soklikni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent Shahar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari bo‘yicha);

- ijtimoiy ta‘minot;
- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda maxalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta‘minlash;
- iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent Shahar budjet tashkilotlarini saqlash;
- qonun xujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;
- qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va maxalliy budjetlar xarajatlari tasdiqlangan budjetdan mablag‘lar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va maxalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining joriy xarajatlari Shaklida;
- 2) joriy budjet transfertlari Shaklida;
- 3) kapital xarajatlar Shaklida: asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘lik ishlar va xizmatlar ham Shular jumlasiga kiradi) davlat extiyojlari uchun

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

olish va takror ishlab chiqarishga; davlat ehtiyojlari uchun erga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

4) qonun xujjatlarida takisimlanmagan boshqa xarajatlar Shaklida.

Hududiy iqtisodiyot muammolari maxalliy budjetlar oldiga yangi muammolarni kuymoqda

-budjet mablag'larining xududlar bo'yicha taqsimotida xarajatlar kulami, hamda mablag'larning cheklanganligi okibatida budjet resurslariga bo'lgan ehtiyojni kondira olmaslik muammosi vujudga kelmoqda.

-budjet tizimida maxalliy budjetlarning mustaqilligi xakida va uning moliyaviy-iqtisodiy zaminlari xakida tortishuvlarning mavjudligi;

-rivojlangan mamlakatlar budjet amaliyotida keng qo'llanilayotgan budjet resurslarini budjet bug'inlari o'rtasida taqsimlash jarayonidagi tegishli asoslar va mezonlarga amal qilish muammosi.

Budjet resurslarini taqsimlashda jaxon amaliyotida quyidagi mezonlar hamda ko'rsatkichlar asos qilib olinadi:

axoli jon boshiga kura budjet resurslarining taqsimlanishi;

iqtisodiy potensialdan foydalanish darajasiga qarab budjet resurslarining taqsimlanishi.

Ma'lumki, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda maxalliy budjetlarning tutgan o'rni kattadir. Maxalliy budjetlarning 70-80% xarajatlari aynan ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishga qaratilgandir.

Maxalliy budjetlardan moliyalashtirishning umumiy prinsiplari va boshqarish usullari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- minimum xarajatlarda maksimum samarani olish;

- budjet assignasiyalaridan foydalanishning maqsadli xarakterdaligi;

-ko'zda tutilgan rejalarning bajarilishi va oldin berilgan assignasiyalarning foydalanilganligini inobatga olgan holda budjet mablag'larini taqdim etish.

Umumiy prinsiplar bilan birgalikda budjetdan moliyalashtirish amaliyotida xususiy prinsiplardan ham foydalaniladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- faqat ishlab chiqarishni kengaytirish xarajatlariga budjet assignatsiyalarini ajratish;
- budjet assignatsiyalarining o'lchamini aniklashda "koldik" yondoshuvidan foydalanish;
- budjetdan moliyalashtirishni rejalashtirilayotgan xarajatlarni kredit metodi orqali ta'minlash bilan birgalikda foydalanish;
- korxonalarning moliyaviy holatini budjetli tartibga solish prinsipi va boshqalar.

Amaliyotda budjetdan moliyalashtirishning turli Shakllaridan foydalaniladi. Smetali moliyalashtirish, dotatsiya, subvensiya, subsidiya, budjet ssudalari, baholardagi farqni qoplash va boshqalar budjetdan moliyalashtirishning shakllaridir. Ijtimoiy yordam - kam ta'minlangan aholi katlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar va imtiyozlardir. Fuqarolarning ma'lum bir tabakalariga beriladigan imtiyozlar sifatida fuqarolarning amal qilayotgan koida, talab va majburiyatlardan qisman ozod qilinishini tushunamiz. Fuqarolarga beriladigan imtiyozlarning soni va xajmi Shu imtiyozdan foydalanish huquqi berilgan fuqaroning haqiqiy daromadlaridan kat'iy nazar beriladi. Bu imtiyozlar bilan har xil tashkilotlar Shugt'ullanadi va bu imtiyozlar xarajatlarini moliyalashtirish manbalari ham turlichadir. Maxalliy budjetlar xarajatlarining asosiy qismini ijtimoiy sohalar va aholini ko'llab quvvatlash bilan bog'lik xarajatlar egallaydi. Buni biz taxlil ob'ektimiz bo'lmish maxalliy budjeti misolida ham ko'rishimiz mumkin. Shaxrisabz tumani maxalliy budjetining 85-89% ni ijtimoiy soha xarajatlari egallab, asosiy ulush maorif xarajatlariga to'g'ri kelmoqda. Agar 2010 yilda maorif xarajatlariga jami xarajatlarning 69,8 % to'g'ri kelgan bo'lsa, 2011 yilda 70,4 %, 2012 yilda esa

76,7 % to'g'ri kelishi rejalashtirilgan. Maorif tizimi bo'yicha maxalliy budjetlardan asosan umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalari mablag' bilan ta'minlanadi.

Maxalliy budjetlarning asosiy xususiyati Shundaki, unda ijtimoiylik prinsiplari ko'proq namoyon bo'ladi. Shu jumladan aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari faqat maxalliy budjetlardan moliyalashtiriladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yordamga muxtojlariga, xususan, ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarni qo'llabquvvatlashga yo'naltirilgan.



1-Rasm. Ishtimoiy himoya yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 10 dekabrda "Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llabquvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 437-sonli qaroriga asosan voyaga etmagan (16 yoshgacha bolalari bo'lgan, Shuningdek, akademik litsey va kasb-xunar kollejlari ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan) oilalarga nafaqa ota-onalardan birining Shaxsiy arizasi asosida fuqarolarning maxalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi

YUrtimizda ishlamayotgan onalarni ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 25 yanvardagi "Aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj katlamlarini anik yo'naltirilgan tarzda qo'llabquvvatlashning 2002-2003 yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 33-sonli qarorining qabul qilingani buning yaqqol isbotidir. Unga ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ishlamayotgan onalarga bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqa tayinlanadi va to'lanadi.

Kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash maqsadida qator me'yoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 434-sonli qarorida kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi bayon etilgan. Unga ko'ra, kam daromadli oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam tayinlash va uning miqdorini belgilash fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yuklatilgan. Bunday moddiy yordam oilaga 3 oy muddatga tayinlanadi va eng kam ish haqining o'sha vaqtda amalda bo'lgan 1,5 barobaridan 3 barobari bo'lgan miqdorda belgilanadi.


Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlangan oilalar ulushi yil sayin kamayib bormoqda

-jadvalda izohlanganidek, 2007-2011 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha moddiy yordam olgan kam ta'minlangan oilalar soni 221 mingtadan 165,4 mingtaga yoki 25,2 foizga kamaygan. Boshqacha qilib aytganda, ko'rilayotgan davrda jami oilalar soniga nisbatan moddiy yordam olgan oilalar ulushi 3,3 foizdan 2,4 foizga kamaygan. Bu davrda tayinlangan moddiy yordamning oylik miqdori 12 ming so'mdan 93,2 ming so'mgacha yoki

7,76 marta ko'paygan. Taxlil ob'ektimiz bo'lmish Shaxrisabz tumani maxalliy budjeti xarajatlari tizimida aholini ijtimoiy himoyalash bilan bog'liq xarajatlarning ulushi yil sayin pasayib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa aholi turmush darajasini oshayotganligidan dalolat bermoqda. Zero Prezidentimiz o'z nutqlarida aytganlaridek: "O'tgan yili ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi. 2011-yilda Respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o'sdi.

2-rasm

Qashqadaryo viloyat Shaxrisabz tumani maxalliy budjeti xarajatlari tizi mida aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining tutganulushi



Aholining real daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi. Ayni paytda - shunga e'tibor berishingizni so'rayman - aholi jami daromadlarining 47 foizi tadbirkorlik faoliyatidan olinmoqda. Sir emaski, biz mustaqil tarakkiyotimizning dastlabki yillaridan boshlab ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, aholining daromadlari va turmush sharoitida keskin tafovut bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka katta e'tibor qaratmoqdamiz. Keyingi o'n yilda yurtimizda aholi daromadlari xajmi 8,1 barobar ortgan bir paytda, ish haqi, ijtimoiy ko'makka muxtoj toifalarning daromadlari miqdorini jadal oshirish, ularni qo'llabquvvatlash va soliq imtiyozlari berish hisobidan aholining eng past va eng yuqori daromadga ega bo'lgan guruhlar o'rtasidagi tafovut, boshqacha aytganda, daromadlardagi farq koeffitsiyenati 21,1 barobardan 8,3 barobarga kiskardi. Aytish kerakki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari va bir qator iqtisodiy rivojlangan davlatlar o'rtasida bu koeffitsient eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Yurtimizda o'tgan yillar davomida

ish haqi va pensiyalarning xarid qobiliyati izchil va barqaror o'sgani aholining xayot darajasi va sifati ortib borayotganining yaqqol tasdig'idir."

«Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturiga 1112866 muvofiq hamda aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda aniq yo'naltirilgan va tabaqalashgan yondashuvni yanada kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarni zarur moddiy yordam ko'rsatish orqali qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag'batlantirish va haq to'lash mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida yetarlicha chora-tadbirlar takomillashtirib borilmoqda.

II bob bo'yicha xulosalar

Yuqoridagi kursatkichlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki birgina 2012 yil yakunlari bo'yicha maxalliy budjetning xarajatlar ijrosiga qisqacha to'xtalib o'tsak. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2012 yil yakunlari bo'yicha maxalliy budjet jami xarajatlari qariyb 115.9 mlrd. so'mga etib, ushbu mablag'ning 88.9 foizi yoki 103 mlrd.so'mi ijtimoiy soha va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, ish haqi, stipendiyalar, pensiyalar hamda ijtimoiy nafaqalar miqdorini joriy yilninig 1 avgustidan 15 foizga va 1 dekabridan yana 10 foizga oshirish uchun shahar maxalliy budjeti hissobidan 5.7 mlrd.so'm mablag'lar qo'shimcha ravishda yo'naltirildi. 2012 yilda ta'lim sohasiga maxalliy budjet hisobidan 57.2 mlrd.so'm ajratildi va o'tgan yilga nisbatan xarajatlar miqdori 24.3 foizga o'sdi. 2012 yilda maxalliy budjetdan aholi solig'ini saqlash, kasalliklarni oldini olish va profilaktika qilish xarajatlariga 23.98 mlrd.so'm mablag' ajratildi va 2011 yilga nisbatan ushbu xarajtlar 1.28 barobar ko'paydi. Jumladan:

- Dori-darmon vositalari bilan ta'minlashga – 321.0 mln.so'm, 2012 Yilda madaniyat va sport muassasalari xarajatlariga maxalliy budjetdan 215.0 mln.so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalarga nafaqalar va moddit yordam xarajatlari uchun ko'zda tutilgan 20.9 mlrd.so'm mablag'lar maxalliy budjetlar orqali o'z vaqtida va belgilangan miqdorda ajratib borilmoqda. O'z navbatida, "Mustahkam oila yili" Davlat dasturiga muvofiq hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlari va xodimlarining jamiyatda barqarorlik va totuvlikni ta'minlashga qo'shayotgan hissasini e'tiborga olgan holda ularning oylik maoshlari 44 foizgacha oshirildi va bu maqsadlar uchun budjetdan 152.0 mln.so'm ajratildi.

Misol uchun, o'tgan yilning dekabrda mahalla fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari hamda "Mahalla posboni" rahbarlarning ish haqi miqdori – 261 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning ish xaqlari 436 ming so'mdan oshdi, ya'ni bir yilning o'zida 175 ming so'mga yoki 67 foizga ko'paydi. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xarajatlardan tashqari, maxalliy budjetdan shahrimizni obodonlashtirish xarajatlariga 10.3 mlrd.so'm yoki 2011 yilga nisbatan 1.30 barobar ko'p mablag' ajratildi.

Har yili byudjetning salmoqli qismi ijtimoiy madaniy tadbirlarni moliyalashtirishga va aholini ijtimoiy himoya qilishga safarbar etiladi. Bu mablag'lar davlatga:

- xalq ta'limi sohalarini rivojlantirish;
- fan va madaniyatni rivojlantirish;
- aholining tibbiyot xizmatlariga bo'lgan minimal ehtiyojlarini qondirish;
- aholini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish;
- ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish imkonini beradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan sari maxalliy byudjetlar orqali ijtimoiy cohalarni moliyalashtirishning roli oshib bormokda. Hozirgi paytda maxalliy

byudjetdan ajratilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish, byudjetdan tashkdri manbalarni, ijtimoiy soxdning uzi ishlab tonayotgan mablag'larini, fuqarolarning pul daromadlarini faolroq jalb etish vazifasi oldingi uringa kuyildi. Ijtiomiy sohaning tarkibini qayta qurishni jadallashtirishga, uning qisman o'zini-o'zi mablag' bilai ta'minlashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan bir kator chora-tadbirlar ko'rildi. Shu bilan birga fuqarolarning ta'lim olish, salomatligini muxrfaza qilish, jismoniy va rivojlanish borasidagi konstitutsiyaviy kafolatlarini ijtimoiy-madaniy soha muassasalari xizmatidan erkin foydalanishga qaratilgan yo'li saqlab qolindi.

III BOB. AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA BYUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora tadbirlarni moliyalashtirish asosan mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk yillaridanoq davlatimiz ijtimoiy ximoya va ijtimoiy taminotni o'zida mujassam etgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni maqsad qilib oldi. Buning malum sabablari bor albatta. Chunki iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida tovarlar va maxsulotlar (xizmatlar) ning narxi talab va taklifni hisobga olgan holda o'zgarib turadi va aholi iste'molini qondirish uchun aholining ushbu tovarlar (xizmatlar)ga ega bo'lish uchun imkoniyatlari cheklanib qolishi mumkin. Shuning uchun davlatimiz ijtimoiy siyosatini amalga oshirgan holda aholi iste'mol qobiliyatini hisobga olgan holda narxlarni stabillashtira boshladi. Ba'zi iste'mol tovarlari bo'yicha (masalan non mahsuloti buyicha) qat'iy narx belgilab axolining turmush-tarzini pasayishini qaysidir manoda oldini oldi. Bundan tashqari, mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganlarni ximoyalash, mexnat qilish yoshiga etmaganlarni qo'llab quvvatlash zarur edi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirishga va aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu chora-tadbirlarning hayotga tadbiiq etilishida davlat byudjetining ijtimoiy funktsiyalari ayniqsa ravshanroq namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda ham aynan shu ijtimoiy siyosatning maqsadi va vazifalari o'zgartirilmadi, aksincha davlat ijtimoiy siyosatining ko'lami va

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

uning usullari yanada takomillashib bormoqda. Respublikamizda fuqarolik jamiyati shakllangan bugungi kunda, davlat miqyosida olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mahalliy byudjetdagi ijrosini samaradorligini o'rgangan holda, hududlarda davlat ijtimoiy siyosatini holati bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etish, ayniqsa, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijrosini ta'minlash xususida Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi: "Parlamentimiz va mahalliy vakillik organlari — Kengashlar oldida turgan ikkinchi g'oyat muhim vazifa — bu qabul qilingan qonunlarning ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni hukumat tomonidan markazda, hokimliklar tomonidan esa joylarda qanday bajarilayotgani ustidan qat'iy parlament nazoratini, deputatlik nazoratini o'rnatishdan iboratdir" degan fikrlarini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy sohaga ajratilayogan sarf-xarajatlarning samaradorligini yanada oshirish talab etilmokda. Bunda asosiy e'tibor sotsial infrastrukturaga yo'naltirilayotgan xarajatlardan olingan natijaga qaratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'tgan sari yalpi ichki mahsulotda byudjet xarajatlari kisqarib borishi, shu bilan birga xorijiy investitsiyalarning xissasi oshib borishi lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi eng asosiy tamoyillaridan biri bu aholini ijtimoiy himoya qilishdir. Aholining eng himoyasiz va muhtoj tabaqalarini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash esa, o'z navbatida, islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning garovidir".

Samarali ijtimoiy siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tarkibiy o'zgarishlar, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etish

chora-tadbirlari bilan uyg'unlashtirib amalga oshirib borgan taqdirdagina ijtimoiy soxaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiii barpo etish mumkin. Pirovard maqsad esa O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millionlab oilalariing munosib turmush kechirishi uchun sharoit vujudga keltirishdan iboratdir. Ayni mana shu narsa oqibat natijada davlatning qudrati va boyligiin uning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, bozor mexaiizmini joriy etishdan avval insonlarni ijtimoiy ximoya qilish tadbirlari amalga oshirilmog'i lozim. Davlat o'z aholisini himoya qila olgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi. Shuni aloxida aytib o'tish joizki, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov 2012 yil yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoi-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisida so'zlagan ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek "2012 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 11 milliard 700 million dollardan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2011 yilga nisbatan 14 foizga ko'p demakdir. Investitsiyalarning YaIM dagi ulushi 22,9 foizni tashkil etdi.

Umumiy investitsiyalar salmog'ida Noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi 29,4 foizni, jumladan uy-joy qurilishining ulushi 17,7 foizni, ta'lim sohasi - 2,1 foizni va sog'liqni saqlash sohasi - 2,4 foizni tashkil etdi".

Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarni taqsimlash va aholiga etkazish asosan byudjet tizimi orqali amalga oshiradi. Ma'lumki, iste'mol fondlarining asosiy qismi byudjetlar orqali shakllantiriladi. Bunda xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, uy-joy komunal xizmat sohasi bilan bog'liq asosiy xarajatlar mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyotining talabi, tabiati endi atrofga boshqacha qarash lozimligini taqozo etadi. 1999 yil 3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori qabul qilindi. Unda 2000 yil 1 yanvaridan boshlab byudjet tashkilotlari harajatlarini mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibi joriy etildi. Xo'sh, byudjet tashkilotlari harajatlarini mablag' bilan ta'minlashni yangi tartibi nima maqsadda tadbiq etildi? Qarorda ochiq-oydin ko'rsatilganideq ushbu yangilik joriy qilingandan boshlab, byudjet tashkilotlari rahbarlarining mablag'lardan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mustaqilligi kengaydi, ma'suliyati oshdi. Byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarni ta'minlash mexanizmi soddalashtirildi va mablag'lardan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maksadida mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun imkoniyat yaratildi, hamda xodimlar mehnati rag'bat topishi va kadrlarning muqim o'rnashib qolishiga sharoit yaratildi.

Avvalgi byudjet muassaslarini moliyalashtirish tartibiga ko'ra xisobot davrida byudjet tashkilotlarining foydalanilmagan mablag'lari byudjetga qaytarib olinar edi. Natijada byudjet tashkilotlarining mablag'lardan samarali foydalanish manfaati yo'q, edi. Yangi tartibga binoan hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida byudjet tashkilotlarining hisob-varaqalarida tejab qolingani, ya'ni foydalanilmagan byudjet mablag'lari (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun iazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno) olib qo'yilmaydi, balki byudjet tashkilotini rivojlantirish maxsus jamg'armasiga o'tkaziladi va belgilangan tartibda sarflanadi.

Byudjet tashkiloti qo'shimcha daromad yaratish, ya'ni tashkilotni rivojlantirish jamg'armasiga ega bo'lishi mumkinmi? Albatta. Bozor munosabatlari byudjet tashkilotlarida kattagina mablag' jamg'arish

imkoniyatini yaratadi. Bu jamg'arma tarkibiga yuqorida aytilganidek tejab qolingan byudjet mablag'i, ayni paytda tashkilotlar faoliyat turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar, vaqtincha foydalanilmagan binolar, inshootlarni ijaraga berishdan olingan daromadlar, yuridik va jismoniy shaxslardan berilayotgan homiylik (beg'araz) yordami xisobiga shakllantiriladi.

Davlat kishilarga ayniqsa yordamga muhtoj bo'lganlarga, ijtimoiy nochor qatlamlarga, etimlar, bolalar, nafaqaxo'r va nogironlar, yolg'iz onalar, ko'p bolali va kam ta'minlangan, yosh, voyaga etmagan bolali oilalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish kerak. Bu borada ijtimoiy himoyalash aniq maqsadni ko'zlagan va o'z egasiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish ijtimoiy muhofaza tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolmog'i lozim. Bundan tashqari nafaqalar tayinlash va to'lashda boqimandalikka yo'l qo'ymaslik zarur. Ushbu yuqoridagilarga amal kilgan holda mahalliy byudjet xarajatlaridan samarali va oqilona foydalanishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlat byudjetining hamda mahalliy byudjetlarning mamlakat, jumladan xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada ortib bormoqda. Shu narsani ta'kidlashimiz zarurki, mahalliy byudjetlarning xarajatlari tarkibi bevosita mahalliy xokimiyat organlarining xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi vazifalari hamda davlatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish masalalarini amalga oshirish bilan belgilanadi. Mahalliy byudjetlar xududlarda ijtimoiy infratuzilmani saqlash va rivojlantirishda, milliy daromadni taqsimlanishida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida hamda xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi.

Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi rolini oshirish bo'yicha chet el tajribasini o'rganish O'zbekiston Respublikasida bozor

iqtisodiyotiga o'tish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki bu islohotlarning byudjet sohasidagi pirovard natijasi, mahalliy byudjetlarni byudjet jarayonlaridagi ahamiyatini oshirish orqali ijtimoiy sohalarni mablag' bilan ta'minlash va ularni rivojlantirishdan iboratdir.

Aksariyat ijtimoiy xarajatlarning mahalliy byudjetlarga ular daromad bazasini tegishli tarzda oshirmay turib biriktirilishi byudjet ssudalariga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga olib keladiki, bu holat ularni o'z vaqtida qaytarilishidagi muammoning mavjudligi va keskinlashuvi tufayli amaliy jihatdan nomaqbuldir.

Respublikamizda ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishda davlatning rolini saqlanishiga intilish kerak chunki bu bevosita mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga va kam daromadli aholini ijtimoiy-madaniy soxa xizmatlari bilan ta'minlashga, umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan ba'zi tadbirlarni samarali hal etishga imkon beradi. Masalan, turli kasalliklarni tarqalishini oldini olish va ularga qarshi kurashish va boshqa kabilardir. O'zbekistovda ham bu sohalarni rivojlantirishning yo'nalishlari belgilanmoqda va amalga oshirilmokda.

III bob bo'yicha umumiy xulosalar

Iqtisodiy islohotlarning ilk yillaridanoq davlatimiz ijtimoiy ximoya va ijtimoiy taminotni o'zida mujassam etgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni maqsad qilib oldi. Buning malum sabablari bor albatta. Chunki iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida tovarlar va maxsulotlar (xizmatlar) ning narxi talab va taklifni hisobga olgan holda o'zgarib turadi va aholi iste'molini qondirish uchun aholining ushbu tovarlar (xizmatlar)ga ega bo'lish uchun imkoniyatlari cheklanib qolishi mumkin. Shuning uchun davlatimiz ijtimoiy siyosatini amalga oshirgan holda aholi iste'mol qobiliyatini hisobga olgan holda narxlarni

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

stabillashtira boshladi. Ba'zi iste'mol tovarlari bo'yicha (masalan non mahsuloti buyicha) qat'iy narx belgilab axolining turmush-tarzini pasayishini qaysidir manoda oldini oldi. Bundan tashqari, mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganlarni ximoyalash, mexnat qilish yoshiga etmaganlarni qo'llab quvvatlash zarur edi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirishga va aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu chora-tadbirlarning hayotga tadbiiq etilishida davlat byudjetining ijtimoiy funktsiyalari ayniqsa ravshanroq namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda ham aynan shu ijtimoiy siyosatning maqsadi va vazifalari o'zgartirilmadi, aksincha davlat ijtimoiy siyosatining ko'lami va uning usullari yanada takomillashib bormoqda.

Mahalliy byudjetlarni ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi rolini oshirish bo'yicha chet el tajribasin o'rganish O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish yuzasidan amalga oshirilayotgan isloxatlar jarayonida muxim axamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu isloxatlarning byudjet sohasidagi provard natijasi, mahalliy byudjetlarni byudjet jarayonlaridagi axamiyatini oshirish orqali ijtimoiy sohalarni mablag' bilan ta'minlash va ularni rivojlantirishdan iborat.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qulga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish xech qaerda engil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan xar bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalrardan shak-shubxasiz samarali foydalaniladi. Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-xuquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir.

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora tadbirlarni moliyalashtirish asosan mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Xulosa

Mavzuni atroflicha o'rganish natijasida aniqlangan muammolar va taxlillardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan umumta'lim maktablariga byudjetdan asosiy normativlar belgilanadi. Har bir viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va aholi zichligidan kelib chiqib normativlarni muayyan koeffitsientlarga oshirish ko'zda tutilgan. Mazkur koeffitsientlarni kamida har uch moliya yilida qayta ko'rib chiqish lozim, chunki bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoiti va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari bunday o'zgarishlarni talab etmoqda.

Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishni kengaytirish va rag'batlantirish maqsadida, ularga faqat taqiqlanadigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish turlarini aniqlab berish zarur. Taqiqlanmagan tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni ularning o'zlari tanlasinlar. Shunday qilgan taqdirda, byudjet muassasalarining erkinligi ta'minlanishi bilan birga, ularning mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning yangi turlarini izlab topishga, kashf etishga imkoniyat yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida, ishsizlik muammosining boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan foiz ko'rsatkichi past darajada bo'lsa-da, lekin uning ko'rsatkichi mehnatga layoqatli aholi o'rtasida bir oz yuqori bo'lib turibdi. Ishsizlik alomatlarining aksariyati qishloq joylardagi mehnatga layoqatli ayollar o'rtasida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jihatlarida uy bog'chalarini tajriba sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy bogchalarni hamda maktabdan tashkari muassasalarni ochilishini davlat qo'llab quvvatlashi lozim.

Hozirgi kunda ayrim byudjet muassasalarida byudjet mablag'larni maqsadsiz ravishda sarflash uchramoqda, ya'ni ajratilgan byudjet mablag'lariga

bozor narxidan ancha kimmat, sifatsiz, jismoniy yoki ma'naviy eskirgan tovarlar sotib olinmokda. Ushbu protsessni doimiy nazorat qilish judda murakab. Shuning uchun viloyat, shaxar va tumanlarda byudjet muassasalari sotib oladigan tovar va maxsulotlar bo'yicha doimiy ravishda tenderlar o'tkazish lozim va ushbu tenderlar natijasi bo'yicha sotib olingan tovar va maxsulotlarning narxi va sifati xakida matbuotda doimiy ravishda yoritilishi lozim.

Maorif tashkilotlarida tashkil etilayotgan rivojlantirish fondining taqsimlanishi quyidagi tartibda amalga oshirilmokda, shakllangan mablag'ning:

15 foizgacha byudjet tashkiloti xodimlarini rag'batlantirishga;

85 foizdan kam bo'lmagani byudjet tashkilotining moddiy texnika bazasini kengaytirishga.

Bizning fikrimizcha, mazkur fondning taqsimlanishida, ishchi va xodimlarni rag'batlantirishda muayyan chegara qo'yilgan bo'lib, ushbu chegara ularning tashabbus ko'tarib ishlashi uchun qisman to'siq bo'lmoqda.

Bizning fikrimizcha, qo'shimcha topilgan mablag'larning taqsimlanish chegarasi 50 % / 50 % bo'lganda maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu o'z o'rinda ishchi va xizmatchilarning tashabbus faoliyatini kengaytirib, ularning muqim ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratgan bo'lar edi.

1999 yil 3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qaroriga binoan byudjet tashkilotlari muayyan faoliyat turi bo'yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishi mumkin, lekin iqtisodiyotda xarajatsiz xarakat natijasiz degan koida bor. Shuning uchun ham yuridik makomga ega bo'lgan byudjet muassasalarining tadbirkorlik faoliyatlari uchun bank tomonidan imtiyozli kreditlar va ma'lum muddatga soliq imtiyozlarini berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim sohasida byudjet mablag'larni yuqori byudjetdan quyi byudjetga ajratishda tegishli normativlar asos qilib olingan. Ya'ni viloyat, shchaxar, tumanlarning ijtimoiy-iqtisod axvolidan kelib chikgan holda normativlar muayyan koefitsentlarga oshirish ko'zda tutilgan. Lekin bu holda mablag' ajratishda ko'pgina xollarda byudjet mablag'lari noreal taksimlanadi. Shuning uchun ta'lim tizimidagi muassasalarning binolari va ularning holati, kommunikatsiya, sinflar soni, jihozlanish darajasi va shunga uxshash mezonlardan kelib chiqqan holda byudjet muassasalari guruxlarga bo'linib ushbu xar bir gurux uchun alohida normativ bo'lishi kerak.

O'zbekiston tanlagan islohat yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti bozor mexanizmining samarali ishlashini, aholi turmushining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi, kuchli ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «Bozor munosabatlariga o'tishda O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning xalqi manfaatlariga nihoyatda mos keladigan ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiyotdir».

Xalq manfaatlariga mos bo'lib tushadigan mustaqil iqtisodiy siyosat har qanday davlatning erkin rivojlanishida ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan bozor iqtisodiyotini qurish davlat siyosatining o'zagini tashkil etadi. Har bir insonning yoki biror ijtimoiy guruhning, millatning ijtimoiy manfaatlari doimo uning ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi jamiyat tizimining munosabatlarida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoyalash masalalari ham iqtisodiy, ham siyosiy nuqtai nazardan juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida zikr etilgan fikrlarni amaliyotga tatbiq etish mahalliy byudjet mablag'laridan ijtimoiy sohalarni

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

moliyalashtirishda oqilona foydalanish bilan birga, byudjet tashkilotlarini rivojlantirishni to'g'ri tashkil etishga imkoniyatlar yaratadi deb hisoblaymiz.

Ayniqsa, aholining kam ta'minlangan va kam himoyalangan qismiga - qariyalarga, nogironlarga, bolalarga, ayollarga ijtimoiy yordam berish va ularga yaxshi turmush sharoitini yaratish bozor iqtisodiga og'riqsiz o'tishga, fuqarolarda o'tqazilayotgan iqtisodiy islohotlarga bo'lgan ishonchlarini kuchaytirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 y. -40 B.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692 B
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni, 2000 yil 14 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari

8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. —Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2000 - B. 352.
9. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2005.-B. 528.
10. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2005. - B. 96.
11. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. -B. 48.
12. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008. - B. 64.

13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008.
14. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi // Halq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
15. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56.
16. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2010. -80 b.
17. Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
18. Karimov I.A. "2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
19. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. - 2013.

III. Darslik va o'quv adabiyotlari:

21. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. -526 b.

22. Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. –T.: Sharq, 2003. -400 b.
23. Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish-ning samarali yo'llari. / Monografiya. "Fan" nashriyoti. 2004 y.
24. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.
25. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005. -544 b.
26. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.
27. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnik dlya vuzov /Pod red. D.G.Chernika. M: Yunita-Dana, 2010. -345 s.
28. Finansi. /Pod red. L.A. Drobozinoy –M.: YuNITI, 2010. -350 s.
29. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: "Norma", 2009. –184 b.
30. Jo'raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2007. –232 b.
31. Toshmurodova B., Elmirzaev S. Korporativ soliq menejmenti. O'quv qo'llanma. –T.: "MUMTOZ SO'Z", 2010
32. Mandroshchenko O., Pinskaya M. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. –M.: "Dashkov i K", 2010
33. Chernik D. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. – M.: "Yuniti-Dana", 2010
34. Jidkova E. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. –M.: "Eksmo", 2010
35. Xudoleev V. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnik. – M.: "Forum". 2009
36. Malikov T.S. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. –T.: 2006. —B. 32.
37. Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2003. -B. 148.
38. To'raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: "Akademiya", 2005. - B. 130
39. O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O'quv qo'llanma - T.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -B. 202.
40. Qurbonov Z.N. Soliq auditi.-T.: «Fan va texnologiyalar», 2007.-B. 120.
41. 2,42, Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. -T.: "Akademiya". 2005. 123-bet

IV. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

42. Boymurodov S. Soliq imtiyozlari va ularning soliq to'lovchilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2007 yil, №8
43. Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar.//Soliq to'lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.
44. O'rmonov J. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari. //Soliq siyosatini yanada takomillashtirish-printsipial muxim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi tezislari to'plami. -Toshkent, 2005. -B. 156-157.
45. O'rmonov J., Yu.Xodjaev. Soliq tizimini takomillashtirish-dagi ayrim masalalar. //O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini shakllantirish sharoitida byudjet-soliq siyosatining dolzarb masalalari. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007.-B. 81-82.
46. O'rmonov J. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik kayta jixozlashni soliqlar vositasida rag'batlantirish. //Soliq siyosatini yanada erkinlashtirish - eng muhim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007. - B. 20-21.
47. O'rmonov J. Soliq siyosati islohotlari taraqqiyot omili. //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislari to'plami. - Toshkent, 2008. - B. 29-30.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

48. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2007 yil. -T.:20084.-№5.
49. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008 yil. -T.:2009.-№10.
50. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№12.
51. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.
52. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.
53. O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008 - 2012.

VI.Internet saytlari.

54. <http://www.press-service.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti

55. <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
56. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
57. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
58. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti
59. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
60. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.
61. <http://www.tfi.uz>-Toshkent moliya instituti sayti.